

O'ZBEKISTONDA YURIDIK SOHA UCHUN MILLIY RAQAMLI HUQUQIY MA'LUMOTLAR AVTOMATIK TARJIMA TIZIMINI YARATISH

Nurmuhammadova Xushnoza

nurmuhammadovaxushnoza@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 1-kurs A-potok 1-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16095552>

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda yuridik soha uchun milliy raqamli huquqiy ma'lumotlar avtomatik tarjima tizimini yaratish masalasiga bag'ishlangan. Maqolada avtomatik tarjima nima haqida ekanligi, uning yaratishdan maqsad va foydalari ochib beriladi. Normativ-huquqiy hujjatlar chuqur tahlil qilinadi. Ushbu sohada xorijiy davlatlar ya'ni AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Singapurning tajribasi bilan O'zbekiston tajribasi o'zaro taqqoslandi. Natijada avtomatik tarjima tizimini yaratishda ba'zi bir to'sqinliklar va kamchiliklar borligi aniqlandi. Tadqiqot yakunida O'zbekistonda yuridik sohada avtomatik tarjima tizimini yaratish bo'yicha nazariy tavsiyalar berib o'tildi. Maqola O'zbekistonda huquqiy soha bo'yicha xalqaro hamkorlikni yaxshilash, huquqiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va sohani raqamlashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Avtomatik tarjima, milliy va xalqaro tarjiba, statistika, mashina tarjimasi, sun'iy intellekt, tarjimon, veb-sayt, sertifikat, huquqiy axborot tizimi, raqamli texnologiya.

KIRISH

Milliy raqamli huquqiy ma'lumotlarni raqamlashtirish va avtomatik tarjima tizimini yaratish yuridik sohada katta ahamiyat kasb etadi, ayniqsa O'zbekiston kabi ko'plab tillarda faoliyat yurituvchi davlatlar uchun ham. Mamlakatning yuridik sohasi o'ziga xos huquqiy normalarga ega bo'lib ko'plab huquqiy hujjatlar bir vaqtning o'zida bir necha tillarda bo'lishi kerak. Bugungi kunda jahon miqyosida huquqiy sohani raqamlashtirish, yuridik xizmatlar samaradorligini oshirish va xalqaro huquqiy hamkorlikni kengaytirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida huquqiy sohadagi raqamli transformatsiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Demak, bu maqolada O'zbekistonda yuridik soha uchun milliy raqamli huquqiy ma'lumotlar avtomatik tarjima tizimini yaratish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Avtomatik tarjima - bu inson tomonidan yozilgan matnlarni bir tildan ikkinchi tilga o'zgartirish jarayoni, bu esa tabiiy tilni qayta ishlash, mashina o'raginishi va statistika asosida amalga oshiriladi (A.G.Karpov, 2020). Avtomatik tarjima tizimi yordamida yuridik hujjatlar va qonunlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro auditoriyaga ham yetkazilishi mumkin, bu esa huquqiy xizmatlardan foydalanishni yanada osonlashtiradi. (vazirligi A. , 2023) Avtomatik tarjima tizimlari huquqshunoslar va foydalanuvchilarning vaqtini tejaydi, chunki qog'oz hujjatlarni turli tillarga tarjima qilish jarayoni avtomatlashtiriladi. (vazirligi R. t., 2022)

Maqolaning dolzarbligi shundaki, raqamlashtirilgan hujjatlarning soni ko'paygan sari uning tarjimasiga ham ehtiyoj sezilmoqda. Lekin raqamlashtirilgan ayrim normativ - huquqiy hujjatlarning avtomatik tarjimasini topish imkoni yo'q. Jamiyatdagi turli millatlarning birdamligi uchun ham huquqiy hujjatlarning ko'p tilli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shu sababli, O'zbekistonda yuridik soha uchun milliy raqamli huquqiy ma'lumotlar avtomatik

tarjima tizimini yaratish yo'llari va usullari haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi shuki, O'zbekistonda yuridik soha uchun milliy raqamli huquqiy ma'lumotlarning avtomatik tarjima tizimini joriy qilinishini o'rganish va uni amalga oshirish uchun zarur texnologik va huquqiy asoslarni belgilashdir. Qo'yilgan maqsad uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Yuridik hujjatlarning murakkabligi va tarjima qilinishining o'ziga xosligini o'rganish
- Mavzuga oid milliy va xalqaro tajribani o'rganish
- O'zbekistonda mavjud tarjima texnologiyalari, resurslari va tizimning huquqiy asoslarini tahlil qilish
- Milliy raqamli huquqiy tarjima tizimini yaratish bo'yicha texnologik va huquqiy infratuzilmaning mavjudligi va zaruratini baholash.

Tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar shuki, har bir fuqaro va mansabdor shaxs istalgan normativ – huquqiy hujjatni turli tillardagi tarjimasini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki, yurtimizda ayrim hujjatlarni boshqa tillarga tarjima qilishning imkoni yo'q.

USULLAR

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda yuridik sohada huquqiy ma'lumotlarning avtomatik tarjimasini yaratish maqsadida miqdoriy va sifatli usullarni qo'llagan holda olib borildi. Quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Adabiyotlar tahlili: Yuridik sohadagi ilmiy maqolalar, kitoblar, va boshqa manbalarga asoslangan holda mavzuga oid nazariy asoslar o'rganildi. Google Scholar, Google Yandex, Science web kabi ma'lumotlar bazalaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida “automatic legal translation” va “legal domain machine translation” kabi kalit so'zlar orqali qidiruv amalga oshirildi va so'ngi 10 yil ichida nashr ettirilgan eng muhim manbalar ustuvorlik bilan tanlab olindi.

Texnologik tahlil: Sun'iy intellekt va avtomatik tarjima tizimlari, ayniqsa, huquqiy matnlarni tarjima qilishda ishlatilayotgan texnologiyalar tahlil qilindi. Normativ-huquqiy hujjatlar va raqamli platformalar bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik portali va “Raqamli texnologiyalar vazirligi” rasmiy saytidan olib tahlil qilindi.

Huquqiy- normativ baza tahlil: Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlari to'g'risida” gi va “Ma'muruy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmonlari asosida olib borildi. Qonunchilik tahlili uchun Lex-uz huquqiy axborot tizimidan foydalanildi.

Qiyosiy-tahlil: Yuridik sohada milliy raqamli huquqiy ma'lumotlarning avtomatik tarjima qilish bo'yicha chet davlatlar tajribasi o'rganildi. Bu davlatlarning avtomatik tarjima qilish tizimi, holati va qaysi tillarga tarjima qila olish darajasi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida har bir norma va ma'lumotlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijasida huquqiy sohada avtomatik tarjima bo'yicha quyidagi asosiy ma'lumotlar olindi.

1.Yuridik sohada avtomatik tarjima tizimining ahamiyati

Bu tizim yuridik hujjatlarni turli tillarda o'qish va tushunishni osonlashtiradi. Chet ellik sarmoyadorlar, xalqaro tashkilotlar, va xorijdagi tadbirkorlar mamlakatimizdagi huquqiy bazaga kirish uchun qiyinchilik sezmasdan, kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Mashina tarjimasi (MT) so'nggi bir necha o'n yilliklarda katta yutuqlarga erishdi. Huquqiy sohada esa, yuridik tarjima amaliyotida MT qanday muvaffaqiyatli qo'llanilishini o'rganishga ba'ishlangan bir nechta akademik ishlar mavjud. Hozirgi vaqtda xalqaro yuridik firmalar tomonidan tuzilgan va yuridik tarjimonlar tomonidan hal qilinadigan huquqiy hujjatlarning avtomatlashtirilgan tarjimasi bo'yicha tadqiqotlar bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlarda bo'shliq mavjud. (Patrizia, 2023). Bu fikr, hali bu tizimda ko'p tadqiqotlar olib borilishini hamda amalda tajriba qilinishi kerakligini ko'rsatadi.

2. Xorijiy tajriba

2.1 Amerika qo'shma shtatlari

ASTA-USA suv o'tkazmaydigan korporativ yuridik tarjima xizmatlarini taqdim etadi. Shuning uchun Amerikaning eng yaxshi yuridik firmalari va korporativ yuridik vakillari akkreditatsiyadan o'tgan va sertifikatlangan tilshunoslarimizga murojaat qilishadi.

ASTA-USA barcha huquqiy jihatlar bo'yicha yuqori ustuvor korporativ tarjima xizmatlarini taqdim etadi. Sizga muhim biznes shartnomasi, murakkab sud materiallari, dalillar hujjatlari, moliyaviy hisobot, saqlash yozuvlari, texnik patentni tasdiqlash, ariza xati, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki boshqa muhim hujjatlar uchun tarjima kerak bo'ladimi, ASTA-USA tarjimini va undan to'ldirishi mumkin. Siz uchun istalgan tilda tez va aniq. (ASTA-USA, 2024)

2.2 Buyuk Britaniya

Buyuk Britaniyada Alphetred: yuridik tarjima agentligi faoliyat ko'rsatadi. Yuridik tarjima bo'yicha 40 yildan ortiq tajribaga ega Alphetred yetakchi xalqaro til xizmatlarini yetkazib beruvchilardan biri hisoblanadi. Ko'plab agentliklardan tashqari, kompaniya butun dunyo bo'ylab 3500 dan ortiq professional va mahalliy tarjimonlar bilan ishlaydi. "Biz yuzdan ortiq turli tillarda ishlaymiz, eng keng tarqalganidan tortib eng kam uchraydigan tillar: frantsuz, xitoy, rus, italyan, arab, nemis, turk, ispan, portugal....." deydi Alphetred agentligi. (Alphetred UK, 2024)

2.3 Yaponiya

Yapon qonunlari tarjimasi ma'lumotlar bazasi tizimi Adliya vazirligi tomonidan boshqariladigan veb-sayt bo'lib, yapon qonunlari va qoidalarining tarjimalarini taqdim etadi. Qonunlar va qoidalarining faqat asl yaponcha matnlari qonuniy kuchga ega bo'lib, tarjimalar faqat Yaponiya qonunlari va qoidalarini tushunishga yordam berish uchun ma'lumotnoma sifatida ishlatilishi kerak. Yaponiya hukumati ushbu veb-saytida taqdim etilgan qonunchilik materiallarining to'g'riligi, ishonchliligi yoki valyutasi yoki ushbu veb-saytdagi ma'lumotlardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan har qanday oqibatlar uchun javobgar emas. Har qanday huquqiy masala yoki nizoga qonunni talqin qilish va qo'llashning barcha maqsadlari uchun foydalanuvchilar Rasmiy gazetada chop etilgan asl yapon matnlariga murojaat qilishlari kerak. Qonunlar va me'yoriy hujjatlarni tarjima qilish rejaga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu veb-saytda menyu ostida siz tarjima qo'llanmalari, tarjima rejaları va qonuniy DTD(Hujjat turini aniqlash) kabi turli ma'lumotlarni yuklab olishingiz mumkin.

DTD da siz ushbu tizim tomonidan taqdim etilgan qonun ma'lumotlarining hujjat turini aniqlash fayllari (XML formati) va yaponch-inglizcha standart ikki tilli lug'at ma'lumotlarini (XML formati) yuklab olishingiz mumkin. (JapaneseLaw translation, 2024)

2.4 Singapur

Yuridik tarjima- bu huquq sohasi bilan bog'liq yuridik hujjatlar, atamalar va tushunchalarni konvertatsiya qilish. Bu Singapurda mutaxassis tarjimonlarga muhtoj bo'lgan juda rivojlangan tarjima sohasi. Singapurdagi yuridik tarjimonlar yuridik atamalarni ikki tilda bilishlari va ularning ma'nosini yetaralicha tanib olishlari va ular qabul qilgan yuridik tarjimalarining 100% to'g'riligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Singapurda foydalanish uchun qonuniy hujjatlar ingliz tiliga tarjima qilingan bo'lishi kerak, keyin singaporetranslators.com saytiga murojaat qilish kerak. Hatto ushbu saytda tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, sudlanganlik guvohnomasi, diplom, ilmiy daraja yoki nikoh to'g'risidagi guvohnomaning tarjima qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Tarjima qilingan hujjatlar to'g'ri bo'lganligiga va Singapurning ICA, MOM, HDB, IRAS va ACRA kabi turli institutlar tomonidan qabul qilinishiga ishonch hosil qilish imkoniyati bor. (Singapore translators, 2024)

3. O'zbekistondagi vaziyat

Xo'sh, O'zbekistonda bu sohada vaziyat qanday degan savolga javob bersam. 2022-yil 28-yanvarda Prezidentimizning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida" gi 6076-farmoni imzolandi. Shuningdek, 2015-yil 9-dekabrda "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunni va 2023-yil 25-mayda "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonini yuridik sohada avtomatik tarjima tizimini yaratish uchun huquqiy asos yaratdi.

O'zbekistonda Adliya vazirligi tomonidan boshqariladigan Lex.uz huquqiy hujjatlar bazasini o'z ichiga olgan qonunchilik bazasi bor. Bu sayt o'zida normativ-huquqiy hujjatlar va huquqiy tarjimalarining katta to'plamini taqdim etadi. Yana bir yuridik xizmatlarni elektron tarzda boshqarish imkonini beradigan va hujjatlarni tayyorlash va tahlil qilishni avtomatlashtiradigan sayt bu "E-huquqshunos" dir.

Mening fikrimcha, xorijda aynan yuridik hujjatlar uchun alohida platformalar va veb-saytlar mavjud va ulardan fuqarolar faqat tarjima qilish uchun foydalanadi, lekin bizda bunday tizim mukammal ishlab chiqilmagan. Yuqorida aytib o'tilgan qonunlar va saytlar insonlarga yuridik hujjatlarni tez topa olishga va ularning tarjimasini olish imkoniyatini ta'minlayotgan bo'lsa-da, lekin hali ham milliy raqamli huquqiy ma'lumotlar avtomatik tarjima tizimini yaratish tizimida kamchiliklar mavjud.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yuridik sohada avtomatik tarjima tizimini yaratish bo'yicha muammolar va qonunchilik bo'shliqlarini aniqladi. Demak, buni huquqiy tahlil qilsak. Konstitutsiyaning davlat tili, huquqiy tenglik, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi va axborot erkinligi bilan bog'liq qoidalari milliy tarjima tizimini yaratishda asosiy huquqiy manba hisoblanadi. O'zbekistonda yuridik huquqiy axborotlarni avtomatik tarjima qilish va raqamli huquqiy axborot tizimlarini rivojlantirish "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qo'llanmoqda. Unda "Yangi qidiruv tizimlarini yaratish yo'nalishini ishlab chiqish va aniqlash,

shu jumladan audio va video materiallarini izlash va aniqlash uchun yechimlar, axborotni qidirish va olishda semantikadan foydalanish, mashinaviy tarjima tizimidagi yangi texnologiyalar, shuningdek, mashinaviy o'qitishning yangi algoritmlari va texnologiyalarini rivojlantirish" deb yozib qo'yilgan. Mening nazarimda ushbu hujjat yuridik sohada milliy raqamli huquqiy ma'lumotlar avtomatik tarjima tizimini yaratish bo'yicha eng asosiy hujjat hisoblanadi.

"Huquqiy sohadagi avtomatik tarjima tizimlari yuridik tilning murakkabligi va aniqlik zarurati tufayli jiddiy muammolarga duch kelmoqda, chunki kichik xatolar ham jiddiy huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin". (Hajic.J, 2019) Yuqoridagi fikrning qanchalik to'g'riligini O'zbekistondagi muammolar misolida ko'rsak. O'zbekistonda huquqiy hujjatlarning avtomatik tarjimasi bo'yicha Lex.uz birinchi o'rinda turadi. Biroq ushbu tizimda o'rnatilgan onlayn tarjima xizmati mavjud bo'lsa-da, u norasmiydir, ya'ni u aniqlikdan mahrum bo'lishi va barcha mavjud hujjatlarni hali qo'llab-quvvatlamasligi mumkin. Aksariyat tarjimalar rasmiy foydalanish uchun emas, balki umumiy tushunish uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekistonda avtomatik yuridik tarjimalarning mavjudligi va aniqligidagi ayrim cheklovlarni aks ettiradi. Lex.uzda ayrim hujjatlarning tarjimasi yo'q. Masalan: "O'zbekiston Respublikasining 2017-yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"¹ gi Prezident qarori, "O'zbekiston Respublikasida qo'riqlash faoliyati bilan shug'ullanishni tartibga solish chora- tadbirlari to'g'risida"²gi va "Yengil sanoat mahsulotlari xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"³gi Vazirlar Mahkamasi qarorlarining hujjat matni faqat rus tilida berilgan va hatto ingliz tilidagi tarjimasi ham berilmagan. Shundan ko'rinib turibdiki, lex.uzda tarjima qilinishi va ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan hujjatlar hali ko'p.

Hozirda Lex.uz tarjimon xizmatidan foydalanayotgan aholi soni haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Biroq, sayt huquqiy ma'lumotlarga juda muhim kirish imkonini beradi, agar barcha hujjatlar uchun rasmiy va aniq tarjimalar muntazam ravishda mavjud bo'lsa, bu juda foydali bo'lishi mumkin. Avtomatlashtirilgan tarjimaning takomillashtirilgani O'zbekistonning huquqiy muhitini yanada qulay va shaffof qilish orqali yuridik mutaxassislar, fuqarolar va xalqaro biznesga sezilarli darajada yordam beradi.

Mashina tarjimasining(MT) yutuqlari Patrizia Giampierining (2023) fikrlarida o'z tasdig'ini topgan. Mashina tarjimasi(MT) so'nggi bir necha o'n yilliklarda katta yutuqlarga erishdi. Yuridik amaliyotida MT qanday muvaffaqiyatli qo'llanilishini o'rganishga bag'ishlangan bir nechta akademik ishlar mavjud. Lekin, hozirgi vaqtda xalqaro yuridik firmalar tomonidan tuzilgan yoki yuridik tarjimonlar tomonidan hal qilinadigan huquqiy hujjatlarning avtomatlashtirilgan tarjimasida ayrim bo'shliqlar mavjud. Ushbu soha haqida Lingvanex bosh direktori Aliaksey Rudak shunday deydi: "Tasavvur qiling-a, siz ingliz, nemis, xitoy, frantsuz, tillarida yuzlab va minglab hujjatlardan foydalangan holda Fransiyadagi sud majlisiga tayyorgarlik ko'rishingiz kerak.Ushbu hujjatlarning an'anaviy inson tarjimasi sizga minglab dollar va haftalik ish haqini talab qiladi". Shu sababli, yuridik matnlarni mahalliyashtirish deyarli har bir advokatlik firmasi uchun doimiy va jiddiy masala bo'lib qolmoqda, bu esa mashina tarjimasidan foydalanish imkoniyatini, u bilan bog'liq foyda va xatarlarni oshiradi.

¹ <https://lex.uz/docs/3085627>

² <https://lex.uz/uz/docs/-2329917>

³ <https://lex.uz/docs/-2953350>

Murakkab algoritmlar va sun'iy intellektga asoslangan avtomatik tarjima shartnomalari, patentlar va sud hujjatlari kabi katta hajmdagi hujjatlarni tezda konvertatsiya qilish uchun huquqiy tarjimaning ahamiyati kuchlidir. Ushbu tezkor tarjima, ayniqsa, xalqaro sud jarayonlari yoki korporativ xaridlar paytida, bir necha tillarda ko'p sonli hujjatlarni ko'rib chiqishdek mashaqqatli ish bo'lgan yuridik guruhlar uchun juda muhimdir. MT tezkor, dastlabki tarjimani taqdim etadi, bu esa keyingi chuqur tahlil qilish yoki inson tomonidan tekshirish uchun muhim hujjatlarni aniqlashga yordam beradi. Shunga qaramay, yuridik tilning aniqligi uchun ham MT dan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak.

Avtomatik tarjima tizimini yaratish uchun nimalar qilishimiz kerakligi haqida aytadigan bo'lsam, xalqaro huquqiy standartlarga mos keladigan tarjima tizimini yaratish uchun, xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan qonuniy hujjatlarni va ularning tarjimasi asosida ishlangan ma'lumotlar bazasi bilan ishlash ham muhim. Bu esa o'z navbatida, O'zbekistonning milliy huquqiy tizimini xalqaro huquqiy tizimlar bilan uyg'unlashtirishga va xalqaro miqyosda qo'llaniladigan terminlar bilan moshlashtirish imkonini beradi. Shu sababli, xalqaro tajribalarga asoslangan terminologik standartlarni ishlab chiqish va ularni milliy tizimga kiritish, tarjima aniqligini oshirish uchun foydali bo'ladi. Ushbu loyihani amalga oshirish natijalariga ko'ra, yuridik matnlarning avtomatik tarjima sifati inson tomonidan tekshirilgan tarjima bilan taqqoslanganda juda katta farq aniqlandi. Bu esa, yuridik tarjima tizimlarining rivojlanishiga ko'maklashish uchun texnologiya sohasidagi yetakchi mutaxassislar, huquqshunoslar va lingvistlarning hamkorligini talab qiladi. Tizimning samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarilgan dasturiy mahsulotlar doimiy yangilanish va ularga yangi, zamonaviy algoritmlarni kiritish imkoniyatini hisobga olish kerak.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif etish mumkin:

1. Yuridik terminologiyani aniq tarjima qilish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, masalan, tarjima xotirasidan foydalanish.
2. Sun'iy intellektdan avtomatik tarjima jarayonida foydalanish, bu esa tarjimalarni tez sifatlil amalga oshirishga yordam beradi.
3. O'zbek tilidagi yuridik hujjatlar va ularning tarjimalarini saqllovchi ma'lumotlar bazasini yaratish
4. Foydalanuvchilarga qulay interfeys taqdim etish, bu orqali yuridik matnlarni oson tarzda tarjima qilish imkonini berish.

XULOSA

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda yuridik sohada milliy raqamli huquqiy ma'lumotlar avtomatik tarjima tizimini yaratish bo'yicha ba'zi muammolarni aniqladi va o'z takliflarini yoritib berdi. Avtomatik tarjima nafaqat huquqshunos va advokatlarga, balki chet el fuqarolariga hujjatlarni yanada aniq tushunish imkonini beradi va uning samaradorligini oshiradi. Bu esa o'z navbatida insonlarning til bilan bog'liq muammolarini yechish imkoniyatini beradi.

Tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, chet davlatlarda ushbu tizimdan foydalanish darajasi va foiz ko'rsatkichlari ancha yuqori. O'zbekistonda MT bo'yicha veb-sayt va platformalar majud, lekin ularda yetarlicha kamchililar mavjud. Ularning to'liq ishlamasligi, aniqlik kamligi shuningdek, ayrim normativ-huquqiy hujjatlarnng tarjimasini topish imkoni yo'qligi bu tizimning hali to'liq ishlab chiqilmaganidan dalolat beradi.

Tadqiqotlar natijalariga asolanib, yuridik sohada mashina tarjimasini yaratish bo'yicha bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Bular orasida huquqiy ma'lumotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, sun'iy intellektdan foydalanish, ma'lumotlar bazasini yaratish va qulay interfeysni taqdim etish asosiy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, yuridik sohada avtomatik tarjima tizimini yaratish imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Bu esa yuridik sohaning raqobatbardoshligini oshiradi, balki huquqiy xizmatlar foydalanish darajasini oshirib beradi. Kelajakda mashina tarjimasini rivojlantirishga doir alohida taklif va yechimlar ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida" gi qonun
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2017-yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida" gi qarori
5. "O'zbekiston Respublikasida qo'riqlash faoliyati bilan shug'ullanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori
6. "Yengil sanoat mahsulotlari xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori
7. <https://www.cambridgescholars.com/product/978-1-5275-1509-3>
8. Baltic journal of law & politics 15 (1), 141-172, 2022
9. International Conference on Natural Language Processing and Knowledge Engineering, 2003. Proceedings. 2003, 150-157, 2003
10. Zeitschrift für Japanisches Recht 12 (24), 187–199-187–199, 2007
11. Canadian AI 2009 Kelowna, Canada, May 25-27, 2009 Proceedings 22, 64-73, 2009
12. <https://huquqburch.uz>
13. https://www.japaneselawtranslation.go.jp/help/en/#!/law_search
14. <https://lingvanex.com/>
15. <https://www.researchgate.net/>
16. Corporate Legal Translation Services | ASTA-USA
17. <https://asta-usa.com/legal-translation-services/>
18. <https://www.alphatrad.co.uk/linguistic-services>
19. <https://www.singaporetranslators.com/>